

TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA KLASTERLARNING
O'RNI

Tursunova Zarnigor Rustamovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Menejment kafedrası tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatining rivojlanishi, maqolada to'qimachilik sanoati uchun belgilangan davlat chora tadbirlari, farmonlar, qonunlar, to'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, klasterlar uchun berilgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek to'qimachilik sanoatini yanada rivojlanishi uchun muhim bo'lgan taklif va fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik sanoati, klasterlar, iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan omillar.

Mamlakat iqtisodiyotini izchil rivojlantirib borish sharoitida korxonani oqilona yuritish uchun, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlardan oqilona, samarali foydalanib, bozor talabi darajasidagi, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ishlab chiqarishni bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish jarayonida zamonaviy uslublardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy yangi texnika texnologiyalarni joriy qilish, chet el investisiyalarda oqilona foydalanish yo'llarini izlash va mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Buning uchun esa mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni muntazam ravishda chuqur o'rganib, iqtisodiy islohotlarni amaldagi tadbir'ini tahlil qilish zarur.

Hozirgi davrda fan-texnika tez sur'atlar bilan taraqqiy etmoqda va u ilgari texnika taraqqiyotiga qaraganda birlamchi afzalliklarga egadir. Fan texnika taraqqiyoti afzalligi shundaki, ilg'or mamlakatlarda fan yangiliklari tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy qilinadi, binobarin fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanib boradi. Shu bois, davlatning investisiya resurslarini fan-texnika taraqqiyotining ilg'or sohalari bo'lgan engil sanoat, to'qimachilik sanoati, aviasiya, mashinasozlik sanoatini, informatika, elektronika, atom energetika, ishlab chiqarish sohaslarini kompleks mexanizasiyalash, avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va ularga ishlov berish texnologiyasi singari muhim yo'nalishlarga jalb etishga qaratilgandir. Bu borada avvalambor ishlab chiqarish tarmoqlarini yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlash jarayonining jamiyat har bir a'zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohaslarini yangi texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolari dunyoqarashi, tafakkurining o'zgarishi, ularning demokratik tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liqdir.

Respublikamizda so'nggi yillarda sanoatning muhim tarmoqlaridan biri - to'qimachilik sanoatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz 10.01.2023 yildagi "Paxta-to'qimachilik klasterlarifaoliyatini qo'llab quvvatlash,

to'qimachilikva tikuv trikotajsanoatini tubdan isloh qilishhamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga asosan keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko'rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta'minlash hamda gilam va uy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadlari qo'yildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to'liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi.

Shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda.

To'qimachilik klasteri modeli to'qimachilik korxonalariga paxta xomashyosini ishlab chiqarishdan tortib, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan to'qimachilik mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarishgacha bo'lgan butun ta'minot zanjirini tashkil etishni nazarda tutadi. Modelning maqsadi to'qimachilik sanoatiga vertikal integratsiya va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishdan iborat. Klasterlar xususiy sektordan zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va mexanizatsiyalash sohalariga investitsiyalarni jalb etishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, samaradorlik va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Klasterlar tashkil etish orqali fermerlar bilan ilmiy-tadqiqot aloqalarini yaxshilash, paxta terimchilari uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, subsidiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish, uzoq muddatda davlatning ishlab chiqarishni boshqarish va marketing mas'uliyatini kamaytirish kutilmoqda.

To'qimachilik sanoati tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda xomashyo, material va energiya resurslari sarf me'yorini tushirish hisobiga tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish muhim hisoblanadi.

To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligini oshirish evaziga ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish orqali sanoat samaradorlik ko'rsatkichlari ko'tariladi. Hamda ishlab chiqarishni samarali diversifikatsiyalash va xom-ashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish yo'nalishlariga innovatsiyani qo'llash orqali unumdorlik oshadi.

Respublikada klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etildi. 2018-yili paxta-to'qimachilik klasterlari soni 16 taga, 2019-yili 77 taga, 2020-yili 97 taga hamda 2021-yili 122 taga, 2022-yilda esa 134 taga yetdi va klasterlar respublikada mavjud paxta maydonlarining 100 foizini qamrab oldi. Bundan ko'rinib turibdiki, Respublikamizda paxta – to'qimachilik klasterlari rivoji uchun keng yo'l ochilgan va bunda sanoat klasterlari yildan yilga ko'payib rivojlanib kelmoqda.

1. "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab quvvatlash, to'qimachilikva tikuv trikotajsanoatini tubdan isloh qilishhamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi farmoni(PF-2 son, 10.01.2023y)
2. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Farmoni (PF-14-son, 16.11.2021 y.)
3. Vazirlar Mahkamasi 04.12.2021 yildagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 733-son qarori https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/pahta_tuqimachilik_klasterlari_faoliyatini_tashkil_etish_tartibi_tasdiqlandi
4. "Paxta-to'qimachilik klasteri – iqtisodiy taraqqiyot lakomativill kitobi CottonTextile Cluster - locomotive of the economic development: The cluster system is an important factor in the transition to market principles Paperback – March 4, 2021 de Gruyter, pp. 190-213.
5. F.X. Raximov, M. A. Raxmatov, B. Z. Zaripov, B. Sh. Usmanov Paxta to'qimachilik klasteri yoxud iqtisodiy yukshalish sari odimlar. T. To'qimachilik muammolari 2018 №4 120-125b
6. Портер М. Международная конкуренция. – М.: Международные отношения, 1993. С. 51.